



HAMZA HAKIMZODA NIYOZIYNING TA'LIM KONSEPSIYASI

Mo'minaxon Baxtiyorova,

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1776>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 18

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Hamza Hakimzoda Niyoziy, pedagogik meros, milliy didaktika, jadid pedagogikasi, "Yengil adabiyot", o'quv qo'llanma, didaktik rekonstruksiya, antonimik juftlik, manba ishonchligi, o'quv yuklamasi

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning ta'lim konsepsiyasi ilk bor yaxlit didaktik tizim sifatida, birlamchi o'quv matnlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning manbaviy asosini "To'la asarlar to'plami"ning 2-jildida "Pedagogik risolalar" umumiy sarlavhasi ostida berilgan matnlar – "Yengil adabiyot", "Axloqiy hikoyalar" va "Ikkinchi sinf uchun" bo'limlari tashkil etadi. Tahlil birligi sifatida muallifning o'zi belgilagan birlik – dars olindi. Tahlil makro-, mezo- va mikro darajalarda, manbalarning ishonchligini baholashning uch darajali (A, B, V) shkalasi asosida olib borildi. Tadqiqot natijasida ta'lim maqsadining uch qatlamli ierarxiyasi (diniy burchning sharti – inson bo'lishning o'lehoivi – ijtimoiy illatlarni bartaraf etish vositasi), "Yengil adabiyot"ning olti tematik blokdan tashkil topgan makrostrukturasi, "bayt – nasriy izoh – hikoya" uch qismli metodik apparati va antonimik juftlik tamoyili aniqlandi hamda Hamza didaktikasining sakkizta tamoyili rekonstruksiya qilindi. Muallif so'zboshisining didaktik tahlili darslik yaratishda loyihali yondashuv – maqsadli auditoriya, o'quv yuklamasining dozasi, til saviyasi va bosqichlararo uzviylikning oldindan belgilanganini ko'rsatdi. Shu asosda darsliklarni faqat "ehtiyoj mahsuli" deb baholashning yetarli emasligi asoslanadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 18

KEYWORDS

Hamza Hakimzade Niyazi, pedagogical heritage, national didactics, jadid pedagogy, textbook, didactic reconstruction, antonymic pair, source reliability, learning load

ANNOTATION

This article offers the first reconstruction of Hamza Hakimzade Niyazi's educational concept as an integral didactic system, based on primary instructional texts. The source base comprises the texts published under the general heading "Pedagogical Treatises" in the second volume of the five-volume Complete Works: "Yengil adabiyot", "Axloqiy hikoyalar" and "Ikkinchi sinf uchun". The unit of analysis is the author's own unit – the lesson; the analysis was carried out at macro-, meso- and micro-levels using a three-level (A, B, C) scale of source reliability. The study identifies a three-layered hierarchy of the aim of education (a precondition of religious duty – a measure of becoming fully human – an instrument for eliminating social ills), the macrostructure of "Yengil adabiyot" consisting of six thematic blocks, the three-part methodological apparatus "verse – prose explanation – story", and the principle of antonymic pairs; eight didactic principles are reconstructed. The analysis of the author's preface demonstrates a design-based approach to textbook creation: the target audience, the dose of learning load, the language level and inter-stage continuity were determined in advance. On this basis, the assessment of the textbooks merely as a "product of necessity" is shown to be insufficient. Three limitations of the concept are stated explicitly.

Kirish

Ta'lim mazmunini milliy-ma'naviy zaminda boyitish vazifasi bugungi o'zbek pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur vazifaning ilmiy yechimi, avvalo, milliy pedagogik merosni yoriqlar va umumiy tavsiflar darajasidan ilmiy rekonstruksiya darajasiga ko'tarishni talab qiladi. Tarixiy-pedagogik tadqiqotda "ma'rifatparvar edi", "maktab ochgan", "darslik yozgan" tarzidagi qaydlar – bu hali bilim emas, balki bilim olish uchun qo'yilgan vazifadir. Pedagogika fani uchun asl savol meros egasi nima qilgani emas, uning ta'lim tizimi qanday tuzilgani, qaysi maqsaddan kelib chiqib qanday mazmun, tamoyil va metodlar tanlangani masalasidir.

Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929) merosi ushbu muammoning eng xarakterli misolidir. Uning o'zbek maktabi tarixidagi o'rni hech kim tomonidan inkor etilmaydi, shu bilan birga, uning pedagogik tizimi yaxlit tahlil predmeti sifatida shu paytgacha qo'yilmagan. Buning obyektiv sababi manbashunoslik bilan bog'liq. Hamzaning o'quv qo'llanmalari uzoq vaqt qo'lyozma holida qolgan, XX asrning ikkinchi yarmida ulardan faqat ayrim parchalar e'lon qilingan, to'liq matn esa besh jildlik "To'la asarlar to'plami"ning 1988-yilgi nashrida – "Pedagogik risolalar" umumiy sarlavhasi ostida – ilk bor muomalaga kiritilgan [1]. Demak, pedagogika fani 1988-yilgacha Hamzaning didaktik tizimi bilan butun holda tanisha olmagan va bu vaziyatda uning darsliklarini didaktik manba sifatida tahlil qilish imkoniyati mavjud emas edi.

Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-pedagogik bilim nazariyasidagi zamonaviy yondashuvlar tashkil etadi: G.B.Kornetovning sivilizatsion yondashuvi [10], Z.I.Ravkin va M.V.Boguslavskiyning paradigmal-aksiologik tahlili [11], X.-G.Gadamerning germevistik tushunish nazariyasi [12] va E.D.Dneprovning tarixiy-kontekstual tahlil tamoyillari [13]. Ularning har biri alohida olinganda yetarli emas – sivilizatsion yondashuv konkret didaktik mexanizmlarni ochishga o'z, germevika sub'ektivlik xavfini saqlaydi, aksiologiya esa prezentizmga moyil, – shu bois tadqiqotda ularning kompleks tizimi qo'llanildi.

Mavjud adabiyot darslik ilmiy bo'shliqni aniq belgilash imkonini beradi: Hamzaning darslik yaratgani fakt sifatida takror-takror qayd

etilgan, ammo mazkur darsliklarning ichki didaktik tuzilishi ya'ni maqsadlar ierarxiyasi, materialni tartiblashtirish mezon, metodik apparatning qurilishi va tamoyillar tizimi tahlil qilinmagan. Matnlar shu paytgacha, asosan, adabiy birlik sifatida o'rganilgan va badiiy mezonlar bilan baholangan; vaholanki, muallif ularni o'quv birligi – dars sifatida taqdim etgan.

Tadqiqotning maqsadi Hamza Hakimzoda Niyoziyning ta'lim konsepsiyasini birlamchi o'quv matnlari asosida yaxlit didaktik tizim sifatida rekonstruksiya qilish va uning ilmiy maqomini aniqlash. Maqsaddan kelib chiqib uchta tadqiqot savoli qo'yildi: 1) Hamza matnlarida ta'lim maqsadi qanday asoslangan va uning ichki tuzilishi qanday? 2) o'quv materiali qaysi mezon bo'yicha tartiblashtirilgan va bu mezon eski maktab didaktikasidan farq qiladimi? 3) matnlarda izchil takrorlanadigan metodik yechimlarni ongli didaktik tamoyil sifatida kvalifikatsiya qilish uchun yetarli asos bormi?

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotni shartli ravishda uchta guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – talqinlarni tanqidiy qayta ko'rib chiqishga bag'ishlangan ishlar. O.Sharafiddinov "Hamza – inqilob kuychisi" tezi hamzashunoslikda "metodologik kalit" vazifasini bajargani va uning dalil bazasi tekshirilmaganini ko'rsatgan [2]. Akademik N.Karimov mustaqillik davrida meros bahosining "180 darajaga o'zgarishi va unutila boshlashi" haqida yozadi [3]. Ikkinchi guruh – matnshunoslik tadqiqotlari: B.Qosimov nashrlardagi qisqartirish va janr o'zgartirishlarini aniq dalillar bilan ko'rsatgan [4]; Sh.Amonov va O.Jo'raboev nashrlar matnini asliyat bilan qiyoslab, semantik darajadagi almashtirishlarni va devon qo'lyozmalarining tarixini oydinlashtirgan [5; 6]. Uchinchi guruh – jadid pedagogikasi kontekstidagi tadqiqotlar: U.Dolimon Turkistonda jadid maktablarining shakllanishi va darslik yaratish ehtiyojini tahlil qilgan [7], N.Jabborov Hamzada yangi maktab g'oyasining I.Gasprali, Munavvarqori va Rahimiyarlar ta'sirida shakllanganini ko'rsatgan [8].

Tahlilning ishchi matni sifatida "To'la asarlar to'plami"ning 2-jildida "Pedagogik risolalar" umumiy sarlavhasi ostida berilgan matnlar majmui – "Yengil adabiyot" (45 dars), "Axloqiy hikoyalar" (9 dars) va "Ikkinchi

sinf uchun” bo’limi olindi [1]. Yordamchi manba sifatida “Yangi saodat” romani, “Maktabi “Dor ul-aytom”” maqolasi va muallifning “Tarjimai holi” jalb etildi.

Har bir matn beshta mezon bo’yicha baholandi: aslyatga yaqinlik; tahririy aralashuv mavjudligi va uning izohlangani; to’liqlik; mustaqil tasdiqlanish; pedagogik axborot zichligi. Mezonlar asosida manbalar uch darajaga ajratildi: A – yuqori ishonchlik (muallif qo’lyozmasi yoki hayotligidagi nashr, tahririy aralashuvsiz); B – shartli ishonchlik (keyingi nashr, tahrir izohlangan yoki aniqlangan); V – cheklangan ishonchlik (rekonstruksiya, parcha, izohlanmagan tahrir). V darajasidagi manbalar xulosa asosi sifatida qo’llanilmadi. Mazkur cheklov prinsipial ahamiyatga ega: masalan, “Boy ilda xizmatchi”ning muomaladagi matni 1939-yilda boshqa muallif tomonidan tiklangan rekonstruksiya bo’lgani bois [2; 4], undan Hamzaning pedagogik qarashlarini bevosita keltirib chiqarish ilmiy asossizdir.

Tahlil birligi sifatida dars olindi, chunki muallifning o’zi materialni aynan shu birlikka bo’lgan va uni izchil raqamlagan. Ushbu tanlov germeneytikaning matn o’z tuzilishiga sodiqlik qoidasidan kelib chiqadi [12]. Tahlil uchta darajada olib borildi: makrodaraja – kitobning umumiy tuzilishi (bo’limlar, ularning hajmi va ketma-ketligi); mezodaraja – mazmunan yaqin darslar guruhi va ular o’rtasidagi o’tish mantig’i; mikrodaraja – alohida darsning hajmi, shakli, til saviyasi va metodik apparati.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo’llanildi: manbashunoslik tahlili va matn tanqidi; mazmuniy (kontent) tahlil – tematik bloklarni va takrorlanuvchi formulalarni aniqlash uchun; strukturaviy tahlil – materialning tartiblashtirish mezonini aniqlash uchun; pedagogik rekonstruksiya – matnda nazariy shaklda bayon etilmagan tamoyillarni izchil takrorlanuvchi yechimlardan keltirib chiqarish uchun; tizimli modellashirish – olingan natijalarni pedagogik tizimning standart komponentlari bo’yicha tartibga solish uchun; qiyosiy-tipologik metod – natijalarni zamonosha jadid darsliklari bilan taqqoslash uchun.

Matnda oshkor bayon etilmagan tamoyilni rekonstruksiya qilish subyektivlik xavfini tug’diradi; uni kamaytirish uchun ikki talab qabul qilindi: a) tamoyil kamida uch mustaqil o’rinda takrorlanishi; b) uning mavjudligi matnning o’z tuzilishi yoki muallif izohi bilan tasdiqlanishi. Mazkur talablarga javob bermagan kuzatuvlar faraz maqomida qoldirildi. Shuningdek, Hamza maktablarining o’quv rejaları, dars jadvallari va imtihon materiallari aniqlanmagani bois ta’lim jarayonini tashkil etish amaliyoti bevosita hujjat orqali tiklanmaydi: tadqiqot doirasi matnlarda aks etgan didaktik yechimlar bilan chegaralanadi.

Natijalar

Ta’lim maqsadi masalasida Hamza matnlari uch qatlamli ierarxiyani ko’rsatadi va bu ierarxiya matnning o’zidan keltirib chiqariladi.

Birinchi qatlam – diniy-axloqiy burch. “Ikkinchi sinf uchun” bo’limining “Ilm” maqolasida muallif ilm olishni diniy amallarning sharti sifatida asoslaydi: “Xususan bizni shariatimizda bizlarga eng avval farz qilingan nimarsa o’zini yo’qdan bor qilgan janobi haqni barcha sifatleri ilm tanumoq va oni barcha buyurgan ishlarini qilub, qaytarganlaridan qaytmoqdur. Yana ushbu ishlarni bilub qilmoq uchun eng avval ilm o’qumoq lozim keladur” [1]. Bu yerda e’tiqod va amal ilmsiz to’liq bo’lmaydi degan qoida ilgari surilmoqda.

Ikkinchi qatlam – insoniylikning o’lchovi. O’sha maqolaning ochilish jumlasini qat’iy: “Ey bolalar, har bir inson bolasiga dunyoda eng avval zarur va lozim bo’lgan nimarsa dunyoda ilmlik o’lmoqdur. Ilmsiz kishini butun inson demaq ayni xatodur” [1]. Mazkur formula pedagogik antropologiya nuqtai nazaridan hal qiluvchi ahamiyatga ega: ilm – insonning qo’shimcha sifati emas, uning to’liq inson bo’lishi sharti sifatida qo’yilmoqda. Demak, ta’lim qo’shimcha imkoniyat emas, inson bo’lish jarayonining o’zidir.

Uchinchi qatlam – ijtimoiy-islohiy vazifa. Bo’limning yakuniy xulosasida muallif konsepsiyasining sababiy asosini ochiq bayon etadi: “Mana, bizni yuqorida aytub o’tdig’imiz hama yomon xulqlar ilmsizlik va tarbiyasizlig’imizdangina paydo bo’lgandir” [1]. Ushbu jumla butun konsepsiyaning kalit matni hisoblanadi. Unda axloqiy illat tug’ma emas, orttirilgan degan qoida ifodalanmoqda, undan esa ikki pedagogik natija kelib chiqadi: tarbiyaning qudratiga ishonch (sabab orttirilgan ekan, uni bartaraf etish mumkin) va mas’uliyatning ko’chishi (ayb bolaning o’zida emas,unga ta’lim va tarbiya bermagan muhitda).

Shunday qilib, maqsad quyidagi ierarxiyada joylashadi: ilm – diniy burchning sharti → inson bo’lishning o’lchovi → ijtimoiy illatlarni bartaraf etish vositasi. Mazkur uch qatlam bir-birini inkor etmaydi, balki yagona vertikalni tashkil etadi. Bu – Hamza dunyoqarashidagi sharq-islom an’anasi va ma’rifatparvarlik an’anasining sivilizatsion sintezi [10] ning aniq matniy tasdig’idir.

“Yengil adabiyot”ning makrostrukturasi: olti tematik blok

“Yengil adabiyot” qirq besh darsdan iborat bo’lib, darslar “Birinchi tayhid dars”dan “Qirq beshinchi dars”gacha izchil raqamlangan. Matnning mazmuniy tahlili mazkur ketma-ketlik tasodifiy emas, balki oltita tematik blokdan tashkil topgan tizim ekanini ko’rsatdi (1-jadval).

1-jadval

“Yengil adabiyot”ning tematik bloklari va ularning didaktik vazifasi

Blok	Darslar	Mavzu	Didaktik vazifa
I	1-5	Tayhid, payg’ambar va choryorlar	Dunyoqarashning metafizik asosini o’rnatish; o’quvchiga tanish bo’lgan ma’naviy zamindan boshlash
II	6-13	“Maktab xususida”: maktabning mohiyati va ahamiyati	Ta’lim institutiga ijobiy munosabat shakllantirish; maktabni qadriyat sifatida taqdim etish
III	14-24	“Ilm va jahl xususida”: ilmning qiymati	Asosiy qadriyatni ko’p qirrali obrazlar orqali mustahkamlash
IV	25-31	Ilmga targ’ib (“O’qub bilgoning qolur” radifi)	Motivatsion ta’sir; takror va ohang orqali esda saqlash
V	32-36	Ilmsizlik oqibatları, munojot, qalam	Salbiy oqibatni ko’rsatish va uni shaxsiy tajribaga o’tkazish
VI	37-45	Axloqiy hikoya va masallar	Qoidani xulq namunasiga aylantirish; ibrat orqali xulosa chiqarishga o’rgatish

Mazkur tuzilishdan aniq didaktik mantiq ko’rinadi: material asosdan amaliyotga qarab harakat qiladi — metafizik asos (I) → ta’lim instituti (II) → asosiy qadriyat (III) → motivatsiya (IV) → salbiy oqibat (V) → xulq namunasi (VI). Boshqacha aytganda, muallif avval nima uchun o’qish kerakligini asoslaydi, so’ng qanday o’qish kerakligini ko’rsatadi, keyin nima qo’lga kiritilishini ochib beradi va nihoyat qanday yashash kerakligini namunalar orqali o’rgatadi.

Ushbu ketma-ketlikning o’ziga xosligi alohida ta’kidlanishi lozim. An’anaviy eski maktab amaliyotida o’quv materiali matn murakkabligi bo’yicha – harfdan so’zga, so’zdan oyatga – tartiblanar edi. Hamzada esa tartiblashtirish mezonini boshqa: u motivatsion-qadriyatli mezon bo’lib, bolaning o’qishga bo’lgan munosabatini shakllantirishni birinchi o’ringa qo’yadi. Mazkur farq – Hamza darsliklarining yangilik darajasini belgilovchi asosiy ko’rsatkich va u ikkinchi tadqiqot savoliga bevosita javob beradi.

Muallif so’zboshisi: o’quv yuklamasini loyihalash

Hamza pedagogik tafakkurining eng ishonchli dalili – “Yengil adabiyot”ga yozgan so’zboshisidir. Unda muallif kitobning maqsadi, o’quvchilar doirasi, yuklama hajmi va kitobning o’quv tizimidagi o’rnini aniq bayon etadi. Kitob “1-sinf talabalari uchun maxsus” tayyorlangan, “haftada bir darsdan” o’tishga mo’ljallangan; mavjud adabiyotlar “yosh talabalarimizga ba’zi lug’atlarining mafhumini og’urlik qilub turganligi” bois “u adabiyotlarga oldingina hozirlamak uchun ochiq ma’noli qilub” tuzilgan; maqsad – “2-sinfga (2-yilda) ko’chgandagi o’qulajak adabiyotlarga yordamchi” bo’lishdir [1].

Ushbu qisqa matnda zamonaviy didaktika tilida ifodalanadigan to’rtta qaror mujassam. Birinchisi — maqsadli auditoriyaning aniqligi: kitob “umuman bolalar” uchun emas, muayyan sinf uchun mo’ljallangan, bu esa o’quv materialini yosh va tayyorgarlik darajasiga moslashtirish tamoyilining amaldagi ifodasidir. Ikkinchisi yuklamaning dozalanishi:

“haftada bir darsdan” ko‘rsatkichi qirq besh dars bilan birga olinganda, kitob taxminan bir o‘quv yiliga mo‘ljallanganini ko‘rsatadi. Uchinchi til saviyasini boshqarish: lug‘at murakkabligi muammo sifatida aniq qayd etilib, yechim sifatida “ochiq ma’noli” matn yaratish tanlanadi; bu mazmunni soddalashtirish emas, tushunarlik tamoyilini qo‘llashdir. To‘rtinchisi propedevtik funktsiya va uzviylik: kitob o‘z-o‘zicha yakunlangan maqsadga ega emas, u keyingi bosqichga tayyorgarlik vazifasini bajaradi.

So‘nggi xulosani mustaqil matnii dalil tasdiqlaydi. *“Ikkinchi sinf uchun” bo‘limining oxirida muallif o‘quvchilarga bevosita murojaat*

qiladi: *“Xiyonatning ziddi sadoqatdir. Emd sadoqatni xudo xohlasa ikkinchi kitobdan boshlab o‘qursiz”* [1]. Bu yerda bir kitobdan ikkinchisiga mazmuniy o‘tish ko‘prigi ochiq qurilmogda, ya‘ni muallif alohida kitobni emas, ko‘p bosqichli o‘quv majmuasini loyihalagan.

“Axloqiy hikoyalar”: tarbiya subyektlari ierarxiyasi

“Pedagogik risolalar” tarkibidagi ikkinchi mustaqil bo‘lim — “Axloqiy hikoyalar” to‘qqiz darsdan iborat. Uning tuzilishi ham tasodifiy emas: darslar tarbiya sub’ektlari bo‘yicha ketma-ket joylashtirilgan (2-jadval).

2-jadval

“Axloqiy hikoyalar” bo‘limidagi darslarning pedagogik vazifasi

Dars	Mazmuni	Pedagogik vazifasi
1	Aqlli maktab bolasining janobi haqqa qilgan munajoti	Metafizik munosabat: shukr va mas’uliyat tuyg‘usi
2	Domlasining qilgan tarbiyalari yodiga tushub degan so‘zlari	Ustozga munosabat; ta’lim beruvchining qadri
3	Akasining qilgan tarbiya va shafqatlarin yod etub degan so‘zlari	Oila ichidagi katta avlodga munosabat
4	Mushfiqa onasi uchun qilgan tashakkurlari	Ona mehnatining anglanishi
5	O‘quvning farzligi haqida	Qadriyatni umumlashtirish
6	Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi	Salbiy namuna: tarbiyasizlikning oqibati
7	Ziyrak Qosimning ahmaq Valiga bergan javobi	Tengdoshlar qiyosi orqali o‘z-o‘zini baholashga undash
8-9	Aqlli Ibrohimning cho‘loq gado va jinni bilan uchrashuvi	Ijtimoiy kuzatuv va hayotiy ibrat chiqarish

Ketma-ketlikning mantig‘i quyidagicha: Xudo → ustoz → aka → ona → o‘quvning o‘zi → salbiy namuna → tengdosh bilan qiyos → keng ijtimoiy muhit. Bola avval eng uzoq va mutlaq nuqtadan boshlab kundalik yaqin muhitga o‘tadi, so‘ng o‘z-o‘zini baholashga va nihoyat tashqi ijtimoiy voqealarni mustaqil tahlil qilishga yo‘naltiriladi. Pedagogik nuqtai nazardan bu — refleksiyadan ijtimoiy kuzatuvga o‘tish yo‘li. Ayniqsa 7-dars diqqatga sazovor: unda ikki o‘quvchi — ziyrak Qosim va ahmaq Vali qiyoslanadi; bu — tayyor xulosani bayon qilish emas, bolaning o‘zini ushbu qiyosda topishiga va xulosani mustaqil chiqarishiga qaratilgan yechim, ya‘ni zamonaviy tilda muammoli vaziyat vositasidir.

Antonimik juftlik tamoyili va uch qismli metodik apparat

Uchinchi bo‘lim — “Ikkinchi sinf uchun” — oldingilaridan tuzilishi bilan keskin farq qiladi: bu yerda material raqamlangan darslarga emas, axloqiy tushunchalarga ko‘ra tashkil etilgan (ilm, jahl, axloq adab, kibr, saxiy, tavoze, baxil, kizb, sidq, to‘g‘ri so‘z, sabr, zulm, xiyonat, sadoqat). Tushunchalarning joylashuvi antonimik juftlik tamoyiliga bo‘ysunadi va muallifning o‘zi bu tamoyilni matnda oshkor qiladi: *“Xiyonatning ziddi sadoqatdir”* [1]. Ushbu qoida butun bo‘limning tuzilish kalitidir (3-jadval).

3-jadval

“Ikkinchi sinf uchun” bo‘limidagi antonimik juftliklar tizimi

Ijoby sifat	Unga zid illat	Tarbiyaviy vazifa
Ilm	Jahl (nodonlik)	Asosiy qadriyatni ziddi orqali keskin ajratish
Tavoze	Kibr	O‘zini baholashda me‘yor tuyg‘usini shakllantirish
Saxiy	Baxil	Mulkka va boshqalarga munosabat me‘yori
Sidq, to‘g‘ri so‘z	Kizb (yolg‘on)	Nutq axloqi va ishonchning asosi
Sabr	Jahl (g‘azab)	Hissiyotni boshqarish ko‘nikmasi
Sadoqat	Xiyonat	Ijtimoiy munosabatlarda barqarorlik
Adolat	Zulm	Ijtimoiy adolat tasavvurini shakllantirish

Mazkur juftlik tizimining didaktik samaradorligi psixologik jihatdan asosli: tushuncha o‘z ziddi bilan birga berilganda uning chegaralari aniqlashadi va esda mustahkam saqlanadi. Hamza bu usulni izchil qo‘llagan — bo‘limda har bir ijoby sifat o‘z antipodi bilan juftlab joylashtirilgan.

Ikkinchi muhim jihat — uch qismli metodik apparat. Bo‘limdagi maqolalarning aksariyati bir xil tuzilishga ega: avval bayt (qisqa she‘riy formula), so‘ng nasriy izoh (tushunchaning ta’rifi va tavsifi), nihoyat hikoya (hayotiy misol). Ushbu uchlik zamonaviy didaktika kategoriyalarida quyidagicha ifodalanadi: bayt — materialni esda saqlashga mo‘ljallangan mnemonik vosita; nasriy izoh — tushunchaning nazariy mazmuni; hikoya — nazariyani hayotiy vaziyatga ko‘chirish, ya‘ni bilimni qo‘llash bosqichi. Demak, har bir maqola “eslab qolish — tushunish — qo‘llash” ketma-ketligini takrorlaydi.

Muallif hikoyaning vazifasini bevosita ham izohlaydi. “Ilm” maqolasining oxirida u shunday yozadi: *“Mana bu yerda sizga bir hikoya*

bila ertagi darsda dalil ko‘rsatmoq lozim keldi” [1]. Ushbu qisqa jumla ikkita metodik qoida mujassam: birinchidan, hikoya dalil vazifasini bajaradi, ya‘ni u bezak emas, isbotlash vositasi; ikkinchidan, “ertagi darsda” iborasi materialning darslararo taqsimlanganini va darslar o‘rtasida mazmuniy bog‘lanish saqlanganini ko‘rsatadi.

Mazkur bo‘limning Shayx Sa’diyning “Guliston” asari ta’sirida yaratilgani ilmiy adabiyotda qayd etilgan [7]. Kuzatuvga didaktik aniqlik kiritish zarur: Hamza “Guliston”dan mavzuni emas, matn qurilish modelini — nazm va nasr almashinuvi orqali axloqiy qoidani bayon etish usulini — o‘zlashtirgan va uni sinf-dars tizimiga moslashtirgan; bu an’anani ko‘chirish emas, an’anani didaktik qayta ishlashdir.

Hamza didaktikasining sakkiz tamoyili

Uch bo‘limning tahlili Hamza amalda qo‘llagan didaktik tamoyillar tizimini rekonstruksiya qilish imkonini berdi. Har bir tamoyil yuqorida bayon etilgan ikki talabga (kamida uch mustaqil o‘rinda takrorlanish va matnii tasdiq) javob beradi (4-jadval).

Hamza didaktikasining rekonstruksiya qilingan tamoyillari va ularning matniy asosi

№	Tamoyil	Matndagi ifodasi
1	Propedevtiklik va bosqichlararo uzviylik	Kitob keyingi bosqichga tayyorgarlik vazifasini bajaradi; bo‘limlar o‘rtasida ochiq o‘tish ko‘prigi quriladi: «ikkinchi kitobdan boshlab o‘qursiz»
2	Motivatsion ustuvorlik	Material murakkablik bo‘yicha emas, o‘qishga munosabat shakllantirish bo‘yicha tartiblanadi: maktab va ilm mavzulari axloqiy hikoyalardan oldin keladi
3	Yoshga moslik va tushunarliklik	Lug‘at murakkabligi muammo sifatida qayd etilib, «ochiq ma‘noli» matn yaratiladi; she‘riy shakl qisqa, o‘lchovli to‘rtliklardan iborat
4	Obrazlilik orqali ko‘rsatmalilik	Mavhum tushunchalar ko‘rinarli obrazlarga ko‘chiriladi: maktab — «dinning chirog‘i», «millatni zo‘r yarog‘i»; ilm — «jannat eshigi», «xazinaning teshigi»
5	Takror va ohang orqali mustahkamlash	25–31-darslarda «O‘qub bilgoning qolur» radifi izchil takrorlanadi; takroriy formula bir necha dars davomida saqlanadi
6	Dalillash	Hikoya qoidani bezash uchun emas, uni isbotlash uchun keltiriladi: «bir hikoya bila... dalil ko‘rsatmoq lozim keldi»
7	Antonimik juftlik	Har bir ijobiy sifat o‘z ziddi bilan juftlab beriladi; muallif tamoyilni matnda oshkor qiladi
8	Bevosita murojaat (adresatilik)	Matn o‘quvchiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qaratiladi: «Ey bolalar», «Ilm istangiz, suygonlar», «Quyosh bo‘ling, o‘g‘lonlar»

Mazkur sakkiz tamoyil Hamza didaktikasining ichki qoidalar tizimini tashkil etadi. Ular muallif tomonidan nazariy shaklda bayon etilmagan — bu o‘sha davr va faoliyat tipi uchun tabiiy holat; ammo ular matnda izchil va takroriy tarzda amalga oshirilgan, bu esa ularni tasodifiy uslubiy belgi emas, ongli metodik tanlov sifatida kvalifikatsiya qilish imkonini beradi. Shu tariqa uchinchi tadqiqot savoliga ijobiy javob olinadi.

Ta‘lim konsepsiyasining tizimli modeli

Yuqoridagi natijalar Hamza ta‘lim konsepsiyasini pedagogik tizimning standart komponentlari bo‘yicha modellashtirish imkonini beradi (5-jadval).

Hamza ta‘lim konsepsiyasining tizimli modeli

Tizim komponenti	Hamza konsepsiyasidagi mazmuni	Matniy asos
Maqsad	Ilm orqali to‘liq inson bo‘lish; diniy burchni ongli ado etish; ijtimoiy illatlarni bartaraf etish	«Ilm» maqolasi; bo‘lim xulosasi
Mazmun	E‘tiqod asoslari → maktab va ilm qadriyati → axloqiy sifatlar tizimi (juftliklarda)	«Yengil adabiyot» bloklari; «Ikkinchi sinf uchun»
Tamoyillar	Propedevtiklik, motivatsion ustuvorlik, yoshga moslik, obrazlilik, takror, dalillash, antonimik juftlik, adresatilik	Matn tahlili asosida rekonstruksiya
Metodlar	She‘riy bayon, hikoya-dalil, qiyoslash, muammoli vaziyat, bevosita murojaat, munajat (refleksiya)	«Axloqiy hikoyalar» bo‘limi; hikoyalar apparati
Tashkiliy shakl	Sinf-dars tizimi; haftada bir dars; yillik sikl; ko‘p bosqichli kitoblar majmuasi	Muallif so‘zboshisi; darslarning raqamlanishi
Kutilgan natija	O‘qishga ichki ehtiyoji shakllangan, axloqiy me‘yorlarni farqlay oladigan, ijtimoiy voqelikdan xulosa chiqara oladigan bola	«Axloqiy hikoyalar»ning yakuniy darslari

Model Hamza merosining pedagogik tizim maqomiga ega ekanini ko‘rsatadi: unda tizimning barcha zaruriy komponentlari mavjud va ular o‘zaro muvofiqlashgan. Ayniqsa muhimi shuki, maqsad va tashkiliy shakl o‘rtasida moslik kuzatiladi: uzoq muddatli axloqiy-ma‘rifiy maqsad uzoq muddatli (yillik, ko‘p bosqichli) tashkiliy yechim bilan ta‘minlangan.

Muhokama

Olingan natijalar mavjud ilmiy baholar bilan ikki nuqtada to‘qnash keladi va ularni aniqlashtirishni talab qiladi.

Birinchi nuqta – darsliklarning genezisi masalasi. Professor U.Dolimov Hamza darsliklarini ijtimoiy ehtiyojga berilgan javob sifatida baholaydi: eski kitoblar «yangi davr yoshlarini tarbiyalashga... qodir emasligini hatto “usuli qadim” tarafdorlari ham tushuna boshlagan edilar... Hamzaning darsliklari mana shu ehtiyoj natijasi o‘laroq vujudga keldi» [7]. Mazkur baho to‘g‘ri, ammo to‘liq emas. Matn tahlili Hamza ehtiyojga stixiyali emas, loyihali javob berganini ko‘rsatadi: so‘zboshida maqsadli auditoriya, o‘quv yuklamasining dozasi, til saviyasi va bosqichlararo uzviylik oldindan belgilangan; material esa motivatsion-qadriyatli mezon bo‘yicha tartiblangan. Demak, «ehtiyaj mahsuli» formulasi «loyiha mahsuli» formulasi bilan to‘ldirilishi kerak. Ushbu aniqlashtirish merosning ilmiy maqomini o‘zgartiradi: Hamza darsliklari o‘zbek milliy didaktikasining ilk namunalarini sifatida baholanish huquqiga ega bo‘ladi.

Ikkinchi nuqta – tahlil birligini tanlash masalasi. Hamza matnlari shu paytgacha, asosan, adabiy birlik sifatida o‘rganilgan. Mazkur yondashuv matnlarning badiiy saviyasini baholashga imkon beradi, ammo ularning didaktik mazmunini ko‘rsata olmaydi: she‘r sifatida «O‘qub bilgoning qolur» radifi takrori uslubiy belgi hisoblanadi, dars sifatida esa u mustahkamlash vositasidir. Ushbu misol tahlil birligini tanlash ilmiy natijani bevosita belgilashini ko‘rsatadi va tarixiy-pedagogik tadqiqotlarda muallif belgilagan birlikka sodiqlik qoidasini qo‘llashning zarurligini asoslaydi.

Natijalarning jadid pedagogikasi kontekstidagi o‘rni. Hamza 1915-yilda Qo‘qonda maktablar uchun kutubxona tashkil etgan; unda Saidrasul Saidazizovning «Ustodi avval», Munavvarqori Abdurashidxonovning «Yer yuzi», Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» va «Turkiy guliston yoxud axloq», Rustambek Yusufbek xojining «Ta‘limi avval» darsliklari saqlangan [8]. Demak, u zamondosh jadid darsliklari bilan bevosita tanish bo‘lgan. Tipologik jihatdan uning axloqiy bo‘limi Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asari [14] bilan bir qatorda turadi: ikkala muallifda ham axloqiy tarbiya mustaqil va tizimli mazmun sifatida ajratiladi, fazilat va illatlar qiyosiy tarzda beriladi, nazm va nasr almashinib qo‘llaniladi. Farq esa didaktik ishlov darajasida: Avloniyda axloqiy tushunchalar izchil nazariy bayon shaklida taqdim etilsa, Hamzada ular dars birligiga

bo'linadi, har bir tushuncha uchun bir xil metodik apparat takrorlanadi va material sinf darajasiga ochiq moslashtiriladi. Mazkur farq ustunlikni emas, vazifa farqini anglatadi: Avloniy matni kengroq, shu jumladan mustaqil o'quvchiga mo'ljallangan bo'lsa, Hamza matni bevosita dars o'tish uchun tuzilgan.

Xulosa

1. Hamzaning o'quv qo'llanmalari ilk bor didaktik manba sifatida, muallifning o'zi belgilagan birlik – dars asosida tahlil qilindi. Tahlilning makro-, mezo- va mikrodarajalarda olib borilishi hamda manba ishonchliligining uch darajali shkalasi qo'llanilishi xulosalarning verifikatsiya qilinadigan maqomini ta'minlaydi.

2. Hamza ta'lim konsepsiyasida maqsad uch qatlamli ierarxiyaga ega: ilm – diniy burchning sharti, inson bo'lishning o'lchovi va ijtimoiy illatlarni bartaraf etish vositasi. Ierarxiyaning o'zagi – «yomon xulqlar ilmsizlik va tarbiyasizlikdan paydo bo'ladi» degan qoida bo'lib, u tarbiyaning qudratiga ishonch va mas'uliyatni muhitga yuklash g'oyasini asoslaydi.

3. «Yengil adabiyot»ning qirq besh darsi oltita tematik blokdan tashkil topgan izchil tizimdir: tavhid → maktab → ilm → targ'ib → ilmsizlik

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. Беш жилдлик. 2-жилд: Педагогик рисолалар. Наср. - Тошкент: Фан, 1988.
2. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. - Тошкент: Шарқ, 2004.
3. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тараққиётининг ўзига хос хусусиятлари. - Тошкент: Фан, 2012.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: Маънавият, 2002.
5. Амонов Ш. Ҳамза шеърляри: манба ва матн тадқиқи // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. - Фарғона, 2019.
6. Жўрабоев О. «Девони Нихоний»нинг яратилиш тарихи ва манбалари // Ҳамза ва XX аср ўзбек адабиёти: мақолалар тўплами. - Фарғона, 2019.

oqibati → axloqiy namuna. Materialni tartiblashtirish mezonini matn murakkabligi emas, motivatsion-qadriyatli mezon bo'lib, bu — eski maktab didaktikasidan prinsipial farqdir.

4. Muallif so'zboshisi darslik yaratishda loyihali yondashuvni isbotlaydi: maqsadli auditoriya, yuklama dozasi, til saviyasi va bosqichlararo uzviylik oldindan belgilangan. Shu bois darsliklarni faqat «ehtiyoj mahsuli» deb baholash yetarli emas – ular o'ylangan loyiha mahsulidir.

5. «Ikkinchi sinf uchun» bo'limi antonimik juftlik tamoyiliga asoslanib, har bir maqolada «bayt – nasriy izoh – hikoya» uch qismli metodik apparatni takrorlaydi; bu «eslab qolish – tushunish – qo'llash» ketma-ketligiga muvofiq keladi. «Axloqiy hikoyalar» bo'limi esa tarbiya sub'ektlari ierarxiyasi bo'yicha qurilib, refleksiyadan ijtimoiy kuzatuvga o'tish yo'lini amalga oshiradi.

6. Hamza didaktikasining sakkizta tamoyili rekonstruksiya qilindi; ular matnda izchil va takroriy tarzda amalga oshirilgani bois ongli metodik tanlov sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Merosda pedagogik tizimning barcha zaruriy komponentlari mavjud va o'zaro muvofiqlashgan, demak, u alohida g'oyalar yig'indisi emas, tizim maqomiga ega.

7. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. - Тошкент: Университет, 2006.

8. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърят. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015.

9. Корнетов Г.Б. Цивилизационный подход к изучению всемирного историко-педагогического процесса. - М.: ИТПиМИО РАО, 1994.

10. Богуславский М.В. Очерки истории отечественного образования XIX-XX веков. - М.: МКЛ № 1310, 2002.

11. Гадамер Х.-Г. Истина и метод: основы философской герменевтики / пер. с нем. - М.: Прогресс, 1988.

12. Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992.

13. Султон И. Ҳамза ҳақида сўз // Ёшлик. - 1989. - № 3